



SALOMATLIK – TUMAN BOYLIK

ЗДОРОВЬЕ НАРОДА — БОГАТСТВО СТРАНЫ

PEDIATR

№ 13 (932)
24-avgust, chorshanba
2022-yil

TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI
ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО
ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТА

Gazeta 1974-yil
mardan chiga
boshlagan

YANGI O'QUV YILI – YANGI REJALAR

**B. T. DAMINOV,
ToshPTI rektori,
Xalq deputatlari Toshkent
shahar kengashi deputati**

Mamlakat taraqqiyotini malakali mutaxassislar belgilaydi. Davlatimiz rahbari prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'nnaviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta'limgizni takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelmoqda.

Ma'lumki, ta'limgiz sohasidagi islohotlar mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning uzviy va hal qiluvchi yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Oliy ta'limgiz muassasalari jamiyat hayotidagi eng muhim bo'g'in.

Donishmand xalqimiz aytib keleyatgan oltin gaplar borki, har bir kasb yoki faoliyat egasidan sergaklik va mas'uliyat talab etadi: "Maqsadli bo'lgan yo'l topar". Barcha ta'limgiz dargohlari uchun avgust – sarhisob va yangi o'quv yiliga rejalar tuzish oyi. Shunday ekan, 2021-2022-o'quv yilida Toshkent pediatriya tibbiyot institutining yo'l xaritasini ko'zdan kechirsak.

Globallashuv sharoitida ma'nnaviy-axloqiy tahdidlarga qarshi kurashda ta'limgiz tarbiya muassasalari faoliyati tizimida bosh harakatdagi shaxs – o'qituvchidir. Demak, ta'limgiz muassasalarida o'qituvchi – asos kuch.

Mazkur o'quv yilida institutimizda ilmiy unvon va ilmiy darajaga sazovor bo'lgan olimlar soni ham sezilarli o'sdi. Jumladan, DSc 6 ta, PhD 24 ta, professor 3 ta, dotsent 15

ta. Professor-o'qituvchilar tomonidan 128 ta darslik, o'quv qo'llanma va monografiyalar tayyorlanib, nashrdan chiqarildi. Shuningdek, professor-o'qituvchilar muallifligida 1 013 ta ilmiy maqola e'lon qilindi. 2021-2022-o'quv yilida ARM fondiga 184 nomdagi jami 11 200 nusxada abayiotlar olindi. "GEOTAR-Media" nashriyot guruhining "Konsultant student" (www.studentlibrary.ru) ko'pprofilli ta'limgiz resurs elektron kutubxonasi fondidan foydalanish imkoniyati yaratildi.

O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi "Davlat va oliy ta'limgiz muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-60-sonli hamda "Davlat oliy ta'limgiz muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-61-sonli qarorlar ijrosini ta'minlash maqsadida institutimizda ham tarkibi 11 nafrar a'zodan iborat Kuzatuv kengashi tashkil etilib, faoliyati yo'lga qo'yildi va institutni strategik rivojlantirish dasturi maqsad va vazifalari, dasturni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari tasdiqlandi.

Institut va 3 ta kafedra tomonidan 7 ta ilmiy, o'quv-uslubiy xalqaro loyihalar bo'yicha ishlari olib borilmoqda. Yetakchi xorijiy turdosh muassasalarda jami 75 nafrar professor-o'qituvchilarimiz malaka oshirdi. Xorijiy muassisalar tashrifi doirasida 14 kafedrada jami 41 nafrar xorijiy mutaxassislar mashg'ulotlar o'tkazdi.

Xo'jalik shartnomasi asosida qiymati 186 934 567 so'mga teng ishlari amalga oshirildi.

Buyuk Britaniyaning "Times Higher Education" agentligi "Young University Rankings – 2022" (Yosh

universitetlar reytingi – 2022) reytingiga ko'ra, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti ilk bor "Reportyer" universitetlar qatorida e'tirof etildi. Ya'ni, TOP universitetlari reytingiga kirish uchun yana bir pog'ona yuqoriladik. Yana bir nufuzli xalqaro reytingi – Times Higher Educationning 2022-yil uchun Impast reytingi (THE Impact Rankings 2022) natijalarida ilk bor Toshkent pediatriya tibbiyot instituti 49.4 ko'rsatkichi bilan 1001+ o'rinni egalladi. Times Higher Education Asia University Rankings – 2022 (Osiyo universitetlar reytingi – 2022) reyting natijalarida esa Asia University Rankings – 2022 xalqaro reytingida "reporter" maqomiga ega bo'ldi.

Shuningdek, talabalarimizning yutuqlari ham quvonarli. IT Academyi Dubai Future Foundation (OAE), "O'zbekiston yoshlar forumi-2021" doirasida "Startap tashabbuslari" yoshlarning innovatsion g'oyalari va startap-loyihalarini qo'llab-quvvatlash dasturi, IT Park, O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, BAA hukumati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tomonidan tashkil etilgan qator xalqaro va mintaqaviy ko'rik-tanlovlardagi olib bo'ldilar.

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini modernizasiyalash borasida keng ko'lamli yangilanish hamda tashabbuslar boshlandi va mazkur holat vatanparvar, malakali, raqobatbardosh professional kadrlarga katta ehtiyojni vujudga keltirdi. Bu ehtiyoj esa tabiiy holda ta'limgiz sohasi bilan uzviy bog'liq. Demak, yangi o'quv yilini ikki karra shijoat va mas'uliyat bilan kutib olamiz.

USTOZ – VITAMIN “D”



Veniamin Dmitriyevich o‘z suhbatlarini onalari haqidagi gaplaridan boshlaydilar.

– Onam Valentina Georgiyevna Vasilyeva meni yolg‘iz o‘zлari oyoqqa turg‘izdilar. Otam Ikkinchiji jahon urushi paytida Stalingrad ostonasida halok bo‘lganlar. O‘shanda onam 29 yoshda edilar. Hayotlarini menga bag‘ishlaganlar. Boshqa tur mush qurmaganlar. Onamni chin ma’noda matonatli, sabrli va yuksak sadoqatga ega inson deb ta’riflash mumkin. Bu ularning mehnat faoliyatiga ham tegishli. Ular o‘z sohasida 50 yil xizmat qilganlar. Onamning tarbiyasi, albatta, farzandlari hayotida aks etadi. Men ham Toshkent pediatriya tibbiyot institutida xizmat qilayotganimga yaqinda ellik yil bo‘ladi.

Onalarining hayoti kichik Venya uchun ham, katta Veniamin Dmitriyevichga ham haqiqiy namuna bo‘lgani ayni haqiqat.

Yolg‘iz ona Veniaminning oyoqqa turishi va boshqa bolalardan kam bo‘lmasligi uchun jon-jahdi bilan harakat qilar edi. Yana otalaridan qora xat kelganimga qaramay hayoti davomida umr

yo‘ldoshini kutadi va boshqa tur mush qurmaydi. Hayotini yolg‘iz o‘g‘liga bag‘ishlaydi. Venyaning bolaligi hozirgi “Bobur” istirohat bog‘i yonida o‘tgan. Uylarining oldida bolalar maydonchasi bo‘lib, mакtab ham uzoqda emas edi.

Venyaning oilasiga xolalari imkonи darajasida yordam berishar edi. Hayot og‘ir bo‘lsa-da, non shahri – Toshkentda hamma bir-biriga ko‘mak berishga harakat qilar, bu yerda hech kim och qolmasdi.

Bugun ba‘zi bir insonlarning o‘zbeklar haqida gapirgan salbiy gap-so‘zlaridan Veniamin Dmitriyevichning g‘azabi qaynaydi. Butun umr O‘zbekistonda yashagan qahramonimiz o‘zbeklar va O‘zbekiston haqida faqat eng iliq fikrlarni bildira oladi.

Veniamin Dmitriyevich ota-sidan qora xat kelgan kunni eslaydi. Onasi kun bo‘yi yig‘lagan edi. Keyin aynan o‘sha kuni o‘q ovozi eshitilib, ularning deraza oynasida teshik paydo bo‘ladi. Deraza oynasiga uzilgan o‘q onasining qalb jarohati sifatida Veniamin Dmitriyevich xotirasida qoladi.

Maktabda Venya yaxshi baholarga o‘qidi, muntazam sport seksiyalariga qatnashdi. Basketbol maydonchasi ularning uyi ya-qinida joylashgan maktab xovlisida bo‘lib, Venya bo‘sh vaqt qoldi deguncha jamoasi bilan birgalikda o‘sha yerga shoshilardi. Uning sevimli sport turi basketbol edi. O‘quvchilik yillari 9-sinfdan yoshlari spartakiadasida terma jamoa tarkibida qatnashdi. Spartakiadalar har yili o‘tkazilardi. Ana shunday spartakidalardan biri 1957-yili Tbilisi shahrida bo‘lib o‘tgan edi.

Maktabda Venya, shuningdek, adabiyot va ingлиз tili fanlarini sevib o‘rganadi.

Maktabni tugatgach, Politexnika institutiga hujjatlarini topshiradi. U juda ko‘p vaqtini sport mashg‘ulotlari, sport musobaqlariga tayyoragarlikga sarflagani bois imtihonlarni muvaffaqiyatlil topshira olmaydi. Keyin 4 yil armiyada harbiy Havo kuchlari safida xizmat qiladi.

So‘ng esa tayyorlanib, o‘ziga o‘xshagan basketbolchi do‘sti bilan Toshkent tibbiyot institutiga hujjatlarini topshiradi.

U spartakiadada qatnashishi zarurligi tufayli boshqa bir necha abituriyent bilan imtihonlarni avvalroq topshiradi. O‘g‘li o‘qishga kirganini eshitgan onasi nihoyatda xursand bo‘ladi. Shirinliklar pishirib, hamma qo‘shnilarni mehmon qiladi.

Bir ozdan keyin do‘sti o‘qishni Moskva shahriga ko‘chiradi. Venya ham u bilan ketishga taraddudlanganda institut jismoniy kafedra mudiri va stomatologiya fakulteti dekani To‘ra Xo‘jayev uni qo‘yib yubormaydi. Axir qanday qilib qo‘yib yuborsin, Veniamin basketbol bo‘yicha ham institut jamoasi, ham universitetlararo terma jamoa tarkibida Kiyev, Moskva va boshqa shaharlarda talabalar xalqaro spartakiadalarida qatnab, munosib o‘rinlar va medallar olib kelmoqda edi. Hatto sport ustasi nomiga sazovor bo‘ldi.

Institutni tugatgach esa shu institutda dars berish uchun qoladi.

Veniamin birinchi darsi oldidan rosa hayajonlanganini eslaydi. Hatto ishtahasi yo‘qolib, bir qoshiq ovqat yegisi kemasdi. O‘g‘lining hayajonini sezgan

onasi uni ortiqcha bezovta qilmaydi. Hayajon bo'lishiga qaramay Veniaminning birinchi darsi muvaffaqiyatl o'tadi.

U avval jiddiy ustoz sifatida ko'rindi, talabalar unga va faniga mehr qo'yishadi, ko'pgina talabalari u boshlagan basketbol seksiyasiga yozilishadi. Veniamin Dmitriyevichda jismoniy tarbiya va shifokorlik nazorati darslari ni o'tish uchun birdek bilim va malaka bor edi. Chunki u tibbiyot institutini tugatgan, shuningdek, sport ustasi ham edi. Sport bilan shug'ullanganda nimalarga e'tibor berish kerakligini yaxshi bilardi.

O'rta Osiyo tibbiyot instituti ajralgandan keyin bu yerga o'tib, yana dars berishni davom ettirdi.

— Yoshgina ustoz ekansiz, o'sha paytda talaba qizlar e'tiborida bo'lgandirsiz? — so'rayman Veniamin Dmitriyevichdan.

— Ha, men yoqtirgan qiz yuqori kursdan edi. To'g'ri, men unga dars bergenim yo'q. Ammo, institutda ko'rib qolib ko'ngil bergenman. Keyinchalik O'rta Osiyo pediatriya tibbiyot instituti ochilib, men bu yerga keldim, u ham Pediatriya fakultetida o'qiganligi uchun shu institutda o'qishni davom ettirdi. So'ngra turmush qurdik.

O'rta Osiyo pediatriya tibbiyot institutida dars bera boshlagandagi sharoitni bugungisi bilan solishtirib bo'lmasdi. Ammo, o'qituvchilarning bilimi turli elektron resurslarda bo'lmasa-da, o'zi bilan birga edi. Bu esa darsni jonli, qisqa, ta'sirli so'zlab berish imkoniyatini yaratar edi. Qani o'sha paytda hozirgi imkoniyatlar bo'lganda.

Veniamin Dmitriyevich nafaqat o'qituvchi, balki dekan muovini bo'lib ham faoliyat olib bordi. O'sha paytda dekan lavozimida Nazarmuhammedov

Faxriddin Xolmuhamedovich ishlar edilar. Nihoyatda halol va talabchan inson boshqalardan ham halollik va mas'ulyatni talab qilardilar.

Biror talabaning ism-sharifi-dagi o'tkazib yuborilgan yagona xato uchun ham ular dekan qabulidan qizarib chiqishar edi. Veniamin Dmitriyevich dekan muovini sifatida uchta bitiruvchi kursni chiqardi. Ammo doim talabalar bilan do'stona munosabatda bo'ldi, ularni qo'llab-quvvatladi, tushundi. Paxta terimida faol bo'la olmay, kam paxta terib azoblanayotgan talabalarning tinchlantirar edi: "Har bir inson vijdonan, imkoniyati yetganicha ishlashi – asosiysi", – derdi u.

Ilgari dekanatda kurs dekani o'rindbosarlari har yili almashmas, birinchi kursda qabul qilgan talabalar o'qishini tamomlaguncha – 6 yil o'z faoliyatlarini davom attirar edi. Shuning uchun Veniamin Dmitriyevich kursdagi har bir talabaning xarakterini, oilaviy sharoitini yaxshi bilar edi. O'sha yillarda stipendiya 74-75 % talabalargagina berilar, 2 yoki 3 baholarga o'qigan talabalarga stipendiya berilmas edi. Veniamin Dmitriyevich esa 3 olgan, ammo sharoiti og'ir talabalarga shu haqda hujjat olib kelishni iltimos qilar va shu orqali ularga stipendiya olish uchun imkoniyat yaratari edi.

Chunki Veniamin Dmitriyevichda har bir talabaning oilasi: ota-onasi qayerda ishlashi, oilada nechta farzand borligi haqida ma'lumot bo'lardi. Ba'zan talabani qattiqroq urushganini his qilsa, keyin oldiga borib, undan kechirim so'rashni kanda qilmasdi. Baribir o'qituvchi adolatlari bo'lishi kerak, deb o'ylaydi qahramonimiz. Va har bir ishida shu fikriga sodiq qoldi.

Talabalardan muntazam xabar oldi. Eski yotoqxona ancha olisda, sharoitlari yaxshi emasdi. Ammo, barcha viloyatlik talabalar uchun joy yetarli edi. Hozirgi hamma sharoiti bor yotoqxona bilan u paytdagi yotoqxonani ham, sport majmuasini ham, institut auditoriya-zallarini ham solishtirib bo'lmaydi. Ammo, o'qituvchilarda bilim berishdagi fidoyilik, halollik o'ta kuchli edi. Veniamin Dmitriyevich ham ana shunday ustozlardan biri bo'lib kelmoqda. Shuning uchun undan tahsil olgan sobiq talabalarning ko'philigi ustoz bilan yozishib turishadi. Jumladan, Maksim Burovskoy ham. Maksim Moskvaga ko'chib ketgach, Sechenov nomidagi institutga qaytadan hujjat va imtihon topshirib kira-di. Ammo, talabaning bilimini sinab ko'rgan ustozlar uni avval 2-bosqichda, so'ngra 3-bosqichda o'qishga loyiq deb topishadi. Maksim Veniamin Dmitriyevichdan basketbol sirlarini o'rgangan hamda bu yerda, O'zbekiston terma jamoasida basketbol o'ynagan edi. Hozirgi kunda Moskva-da yetakchi travmotologlardan biri.

Veniamin Dmitriyevich bunday shogirdlari bilan faxrlanadi. O'z farzandi, yolg'iz qizi – Lena Kraynova bilan ham. Qizi Moskvada shifokor – narkolog bo'lib ishlaydi. Nevarasi Andrey esa maktabda matematika bo'yicha olimpiadalar sovrindori.

Veniamin Dmitriyevich talabalar bilan ishlar ekan, ularning jismoniy baquvvat, aqli teran bo'lishi uchun harakat qiladi.

Balki shuning uchun ham uni talabalar "Vitamin D" deyishar. D darmondorisini organizmning o'sishini ta'minlaydi-da.

BUYUKLAR SIHAT-SALOMATLIK HAQIDA

Sog‘liq hayotning shunday ne’matidirki, chindan ham betob podshodan sog‘lom gado ming karra baxtiyordir.

A.Shopengauer

Sog‘lik – donolar uchun davlat.

P.Beranej

Umr bizga uni so‘nggi daqiqalarga qadar mardona himoya kilish sharti bilan berilgan.

Ch.Dikkens

Boshqalar uchun yashamoqchi bo‘lgan odam o‘z hayotiga ham be-farq bo‘lmasligi kerak.

J.Tyuyo

Hech kim umri qisqa bulib tug‘ilmaydi, uni o‘zimiz qisqartiramiz, – umrimiz tugal, ammo uni biz yelga sovuramiz. Agar oqilona foydalanilsa, umr juda uzoq davom etadi.

Seneka

Odamlar uzoq umr xohlashti-yu, ammo uni extiyot qilishmaydi.

J.Labryuver

Inson 100 yil yashashi mumkin. Lekin biz o‘zimizning tiyiqsizligimiz, palapartishligimiz, organizmimizga nisbatan shafqatsizligimiz tufayli bu muddatni ko‘p yillarga qisqartirib yuboramiz.

P.Pavlov

IBN SINO O‘GITLARIDAN

SOG‘LIQNI SAQLASH UCHUN:

- Odam ikki ko‘zini changdan, tutunlardan va bug‘dan ehtiyyot qilishi zarur;
- Odam quyosh shu’sasidan, issiq shamoldan va o‘t alangasiga qarshi kelishdan saqlanishi zarur;
- Mayda yozuvlar va chaplashgan yozuvlardagi xatlarni uzoq o‘qimaslik kerak.

BADANTARBIYA QILISH UCHUN:

- Kuchli badantarbiya qilma va uni juda tashlab ham qo‘yma, balki o‘rtacha holatda bo‘l;
- Yoz faslida charchatadigan harakatlarni kamaytir, chunki sen terlash bilan bo‘shashib ketasan;
- Uzoq va tez yugurgandan so‘ng birdaniga o‘tirib olma.

Talabalarga o‘zbek tili darslarida turli ijodiy vazifalar beramiz. Bugun o‘quvchilarimizga ulardan bir-ikkitasini havola qilmoqdamiz.

LEYKOTSITNING SARGUZASHTI

Men leykotsitman va men bugun minglab aka-ukalarim bilan birligida suyakning qizil miya sohasida dunyoga keldim. Bizlar yo‘lga otlandik va limfa tugunlaridan qon yo‘liga o‘tdik. Qon bilan birga butun tanani aylanib chiqib, bo‘yin sohasiga yo‘l oldik. Tomoq sohasidan o‘tayotsak, epiteliy hujayralari ga “gripp” nomli bosqinchisi, yaramaslar hujum qilayotgan edi. Buni ko‘rgach, ularga hujum qila boshladik, ammo ular bizlardan son jihatdan ko‘p edi. Bizlar yordamga boshqa leykotsitlarni chorladik va bosqinchilarga qarshi kurasha boshladik! Bizning jangimiz sababidan insonning isitmasi chiqa boshladi. Ular

son jihatdan bizni yuta boshladilar va boshqa hujayralariga hujum qildilar. Biz kutgan yordam kuchlari yetib keldi. Bular boshqa minglab leykotsitlar va antitelalar edi. Ularga qarshi bir necha soat kurashib, ularni yengdik. Bu g‘alaba ortida ko‘plab qurbanlar bo‘ldi. Endi tiklanish vaqt keldi. Hujayralar regeneratsiya qilina boshladi. Bizning o‘rnimizni yosh leykotsitlar egallashdi. Virusning bu turiga qarshi immunitet paydo bo‘ldi. Mening umrim ham poyoniga yetib bormoqda, ammo hayotimdan xursandman.

Ilhom TOIROV

TISHLAR (MONOLOG)

Biz 32 og‘ayni doim birligamiz. Uyimiz 2 qavat, bir necha turli oila bo‘lib hamkorlikda yashaymiz. Bular: kurak, qoziq, aka-uka oziq va aql tishlari. Barchamiz 3 qismidan: tish toji, bo‘yin, ildizdan iboratmiz. Bo‘ynimiz tish toji va ildizni chegaralab turadi. Bo‘ynimiz atrofdan milk bilan o‘ralgan. Tish tojimiz emal bilan, ildizimiz suyak to‘qimasi bilan qoplangan. Ishimiz juda qiyin. Har kuni 16-18, hat-

to ertalabgacha ham ishlashimiz mumkin. Kechasi dam olib, ertalab tongdan ishga tushamiz. Barchamizning o‘z vazifamiz bor: kurak – oziqni kesib oladi, qoziq – uzib oladi, oziq – ovqatni maydalaydi. Nafaqat oziq – ovqat hazm bo‘lishida katta ahamiyatiga egamiz. Sizdan bir iltimos, har kuni bizni yuvib turing. Agar asrab-avaylasangiz, sizga ming yil bo‘lsa ham xizmat qilamiz.

Hasan SUYUNOV



TOSHKENT PEDIATRIYA
TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT
JAMOASI NASHRI
ОРГАН ТРУДОВОГО
КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО
ПЕДИАТРИЧЕСКОГО
МЕДИЦИНСКОГО ИНСИТИУТА

Tahrir kengashi:
D.A. Asadov, A.V. Alimov,
X.F. Haydarov, M. Ahmedova,
K.N. Haitov, S.S. Gulyamov,
D.T. Ashurova, A. Rahmatullayev,
S. Nurxodjayev A. Valiyev,
A. Nosirov,
Nashr uchun mas’ul:
Sh. Abduhoshimova

Bosh muharrir:
B.T. DAMINOV
Tahrir hay‘ati:
(ishchi guruh)
E.O. Tursunov, K.Sh. Turdiyeva
(Bosh muharrir o‘rinbosari),
A.M. Mannonov,
D.A. Ahmedova, H. Rasulov
S.A. Begmonov, H. Abidov,
Z. Karimova, A. Xudayberdiyev

Gazeta Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasida 29.12.2006-yil 02-0010-son bilan ro‘yxatga olingan.

Manzil: 700140, Toshkent-140,
Bog‘ishamol ko‘chasi, 223

“XALQ NASHRIYOTI” XKda chop etildi.
Manzil: Toshkent sh., Qurasaroy ko‘chasi, 316 uy.
Tel.: (71) 242-0510; (95) 170-04-02; (99) 040-04-02.
buyurtma adadi 110 nusxa, qog‘oz bichimi A3.

Gazeta institut hisobidan nashr etiladi
va bepul tarqatiladi.